



## POLITICAL, SOCIAL AND CULTURAL LIFE OF "KASHKA" OAS IN THE XVIII-XIX CENTURIES

Shodiyeva Surayyo Salohiddin qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Teacher of the Department of Literary Studies, Karshi State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4698456>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> April 2021  
Accepted: 15<sup>th</sup> April 2021  
Online: 17<sup>th</sup> April 2021

### KEY WORDS

*Bukhara Emirate, Khiva and Kokand khanates, political turmoil, Qashqa oasis, political, social, literary environment*

### ABSTRACT

*This article deals with the environment of the khanates in Turkestan, in particular, the political, social and cultural life of the Kashkadarya oasis, a branch of the Bukhara Emirate.*

## QASHQA VOHASINING XVIII–XIX ASRLARIDAGI SIYOSIY-IJTIMOY VA MADANIY HAYOTI

Shodiyeva Surayyo Salohiddin qizi<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Qarshi davlat universiteti Adabiyotshunoslik kafedrası o'qıtuvchısı

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 11-aprel 2021  
Ma'qullandi: 15-aprel 2021  
Chop etildi: 17-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonligi, siyosiy parokandalik, Qashqa vohasi, siyosiy, ijtimoiy, adabiy muhit*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Turkiston o'lkasidagi xonliklar muhiti, xususan, Buxoro amirligining bir tarmog'i hisoblangan Qashqadaryo vohasining siyosiy-ijtimoiy va madaniy hayoti xususida so'z boradi.*

## ПОЛИТИЧЕСКАЯ, СОЦИАЛЬНАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ КАШКИНСКОЙ ОАЗ В XVIII-XIX ВЕКАХ

Шодиева Сурайё Салохиддин кизи<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Преподаватель кафедры литературоведения Каршинского государственного университета.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4698456>

**ИСТОРИЯ СТАТЬИ**

Принято: 11 апреля 2021 г.  
Утверждено: 15 апреля 2021 г.  
Опубликовано: 17 апреля 2021 г.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

Бухарский эмират,  
Хивинское и Кокандское  
ханства, политические  
беспорядки, Кашкайский  
оазис, политическая,  
социальная, литературная  
среда

O'рта Osiyoda XVIII asr davomida yuz bergan siyosiy parokandalik natijasida mazkur hudud uch xonlikka: Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'linib ketdi. Har bir xonlik tepasida turgan hukmdor o'z davlatining sarhadlarini mustahkamlashga harakat qildi. XVIII asr o'rtalarida, ya'ni so'ngi Ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxon davrida (1711-1747) Buxoro xonligi bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib ketdi. Mustaqillik da'vo qilgan bekliliklarda qavm boshliqlari boshqaruvni o'z qo'llariga oldi. Abulfayzxon davrida Qashqadaryoda ikki katta urug': Mang'itlar va Kenagas boshliqlari xon huzurida o'z mavqelarini oshirish uchun kelisha olmas edi. Shu bois, Mang'itlar vohaning quyi qismida, Qarshi va uning tevarak-atrofida, Kenagaslar esa Shahrisabz, Kitob tumanlarida joylashdi. Ikki o'rtadagi o'zaro nizolar xalqni tobora bezor qilishi natijada ular o'zlari yashab turgan hududlardan ketib qolishga majbur bo'lgan. XVIII asrning 20-yillarida Qashqadaryo butunlay huvillab, shahar xaroba holatiga kelib qoladi<sup>1</sup>. Bunday holat vohaning Qarshi va Shahrisabz singari shaharlarida kuchayganligini ko'rish mumkin.

Xonlik urug' boshliqlari o'rtasidagi adovatni bosti-bosti qilish o'rniga, bir tomonga yon bosgan holda qarama-qarshilikni yanada

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассматривается среда ханств в Туркестане, в частности политическая, социальная и культурная жизнь Кашкадарьинского оазиса, ответвления Бухарского эмирата.*

kuchaytirib yuborardi. Jumladan, Shahrisabz begi, Kenagaslar boshlig'i Ibrohimbiy Otaliq Mang'itlarga qarshi kurashda omadi chopmaganiga Abulfayzxonni sababchi qilib, oshkora holda dushmanlik yo'liga o'tadi. U Samarqandga borib, kuyovi Rajabxonni xon deb e'lon qiladi. Bu vaqtda Buxoroda bo'lgan Pyotr Ining elchisi Benevenining aytishicha: "...g'alayon ko'targanlar gohida poytaxtni besh oylab qamalda tutib turganlar". Garchand Rajabxon tez orada vafot etgan bo'lsa-da, Buxoroning yon atrofida qishloqlarni talash qariyb yetti yil davom etgan.

XVIII asr o'rtalarida xonlikda mang'itlarning mavqeyi o'sib borgan va juda yuqori darajada bo'lgan. Ayniqsa, bu borada Qarshida otaliq vazifasini bajargan Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim ham o'z maqsadiga erishish yo'lida eronliklar bilan qo'shib, faol harakat qilgan. Nodirshoh qo'lida xizmat qilgan Muhammad Rahim biroz xizmatdan so'ng, Buxoroga kelib, "amir ul-umaro" mansabini egallaydi.

1747-yildan boshlab amalda hokimiyat mang'itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahim qo'lga o'tadi. Muhammad Rahim o'z hokimiyatini mustahkamlash va markazlashtirish maqsadida ko'pgina istilochilik yurishlarini amalga oshiradi.

<sup>1</sup> Равшанов П. Қарши тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 516.



Natijada 1756-yilning kuzida din peshvolari tashabbusi bilan unga rasmiy xon unvonini berish masalasi qo'yiladi.

Ko'pgina manbalarda Buxoro amirligi 27 beklididan iborat ekanligi aytib o'tilgan. Tarixchi va sayyoh Boljuvoni esa bu beklidlarni quyidagi tartibda sanab o'tadi: "Chorjo'y, Karki, Kalif, Qarshi, Karmina, Nurota, Ziyovuddin, Xatirchi, G'uzor, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi, Jomchi va Sherobod, Boysun, Dehnav, Sariosiyo, ya'ni Sarijo'y, Hisor, Qorategin, Darvoz, Boljuvon, Ko'lob, ya'ni Xatlon, Qo'rg'ontepa, Kubodiyondir"<sup>2</sup>.

Qashqadaryo hududi Buxoro amirligida o'ziga xos o'rin egallagan. Jumladan, amirlik ixtiyorida bo'lgan Qarshi bekligi "valiahd bekligi" sifatida talqin etilgan. Masalan, rus olimasi O.Suxareva "Buxoro xonligidagi shaharlar tarixiga doir" (1958) asarida quyidagilarni bayon qiladi: "Qarshi Buxoro xonligining ikkinchi siyosiy markazi bo'lgan. Bu yerda Buxoro taxti vorisi qarorgohi bo'lgan, u soliq yig'ish ishlarini nazorat qilgan bek bilan boshqaruvga qo'yilgan". Qarshida XIX asrda ko'plab chorbog'lar yaratilgan. Hattoki 1863-yilda Qarshida bo'lgan venger (mojor) sayyohi G.Vamberi ham o'z asarida to'xtalib: "Qarshida omma uchun mo'ljallangan bog'larni ko'rib tamomila hayratda qoldim," – deb ta'kidlab o'tgan.

Qashqadaryo vohasi kishilari chorvachilik, dehqonchilik, kulolchilik, zargarlik qilib kun kechirishgan. Bu davrda voha kulolchiligida o'ziga xos badiiy uslub vujudga kelgan. Kulolchilikning asosiy markazlari Qarshi, Shahrisabz va Kitob shaharlari edi. Vohada zargarlik ham taraqqiy etgan XVIII-XIX asrlarda Qarshi, Shahrisabz

ham Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent va Qo'qon shaharlari kabi O'rta Osiyoning yetakchi zargarlik markazlaridan biri bo'lgan. Qarshi bekligi tarkibiga kirgan ayrim qishloq yoki mahalla nomlari, o'sha qishloq aholisining qaysi hunar bilan shug'ullanganligidan dalolat bergan. Masalan, Qarshida Degrez, Misgarlik, Charmgar, Sandiqchi, Dukchi, Kosagir, Duradgor kabi ko'plab mahallalar mavjud bo'lgan.

Qarshi bekligida ijtimoiy va madaniy sohada o'zgarishlar xalq orasida "amir ma'sum" (begunoh amir) nomi bilan shuhrat qozongan, mang'itlar sulolasining vakili amir Shohmurod davrida (1785-1800) ko'zga tashlanadi. Amir Shohmurod ko'plab ijobiy jihatlari bilan boshqa mang'it hukmdorlaridan farq qilgan.

Amir Shohmurod o'z mamlakatini XIX asr boshlarida bir qadar yuksaltirishga erishgan. Shohmurod davrida aholidan olinadigan soliqlar obodonchilik ishlariga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish kabi muhim ishlarga sarf qilinganligi ham uning naqadar ezgu ishlarning homiysi ekanligini ko'rsatadi. Amir Shohmurodni sug'orish tarmoqlariga alohida e'tibor berganligini rus sharqshunosi V.Bartold ham "...uning podshohlighi davrida Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryodagi sug'orish tarmoqlari tiklangan edi,"<sup>3</sup> – deb e'tirof etib o'tadi.

Qarshi shahrini tiklash ishlariga faqatgina amir Shohmurod davrida kirishildi. Qarshi shahri mang'itlar sulolasining o'ziga tayanch hududlaridan hisoblanar edi. Amir Shohmurod o'limidan biroz oldinroq o'g'li va valiahdi Haydarni Qarshi bekligiga hokim qilib jo'natadi. Amir Haydar davrida Qarshi shahrining qo'rg'oni, masjid va madrasalari,

<sup>2</sup> Мухаммад Али Болжувоний. Тарихи Нофеий. – Т.: Академия, 2001. – Б. 27.

<sup>3</sup> Ko'charov Jamshid. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan ( magistrlik dissertatsiyasi). – Samarqand: 2008, – B. 19.



karvon saroylari, namozgoh masjidi ta'mirlandi, shahar obodonlashtirildi.

Buxoro amirligida XIX asr birinchi yarmida, amir Nasrullo (1826-1860) hukmronligi davrida ajnabiylar (ruslar, inglizlar)ning tashriflari tez-tez takrorlanadigan bo'lib qoladi. Bunday kuzatuvchilarning birdan bir maqsadi Turkiston o'lkasini o'z mustamlakalariga aylantirish ekanligi keyinchalik aniq namoyon bo'ldi.

Buxorodagi rus elchixonasi xodimi Meyendorf 1820-yilda Qarshini Buxoro amirligining yirik aholi maskani va xalqaro savdo yo'lidagi shahar sifatida ta'riflagan<sup>4</sup>. Hirot va Kelifdan kelayotgan karvonlar, eng avvalo, Qarshi shahrida to'xtashib, bozorda turli qorako'l terilari, quruq mevalar, paxta xomashyosi va tolalari mahsulotini sotib olishgan.

Venger sharqshunosi o'z ma'lumotlarida Qarshi aholisining etnik tarkibi to'g'risida ham to'xtalib, aholining aksariyat qismini o'zbeklar tashkil etishi bilan birga shaharda tojiklar, afg'onlar, hindular, yahudiylar ham istiqomat qilishi haqida xabar qoldiradi.

Tarixchilarning ko'rsatishicha, "Buxoro xonligi siyosiy nuqtayi nazardan katta shaharlar soniga qarab bo'linadi. 1) Qorako'l, 2) Buxoro, 3) Qarshi, 4) Samarqand, 5) Karki, 6) Xizor (Xuzor), 7) Miyonqol yoki Karmana, 8) Kattaqo'rg'on, 9) Chorshuy (Chorjo'y), 10) Jizzax, 11) O'ratuba, 12) Shari Sabe (Shahrisabz). Bu so'nggi bekklik kattaligi jihatidan Samarqandga tenglashadi, biroq amir bilan muntazam olib borilgan urushlar oqibatida uning faqat bir qismini xonlikka tobe deyish mumkin"<sup>5</sup>.

Buxoroni G'uzor, Yakkabog' kabi bekkliklar bilan qiladigan savdosi Qarshi shahri

orqali o'tgan. Shuningdek, Buxoro shahri Toshkent, Samarqand vohalari, Farg'ona vodiysi hamda Afg'oniston va Hindiston, Xitoy bilan ham Qarshi vositasida bog'langan. Natijada XVIII asrning boshlariga kelib Qarshi savdo-sotiq bo'yicha Buxoro shahridan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Manbalarda bayon etilishicha, Qarshida 1840-yilda uchta, 1863-yilda esa o'nta karvonsaroy mavjud bo'lgan. Buxoro xonligida Qarshi shahri nufuzining oshishi XVI asrning ikkinchi yarmidan ko'zga tashlanadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, XVIII asr o'rtalarida Qarshi yirik savdo shahri bo'lib, qo'rg'onning barcha bosh ko'chalarida savdo do'konlari faoliyat ko'rsatgan, lekin ularning asosiy qismi shaharning shimoliy qismida joylashgan. XVIII asrning oxirlarida, Haydar To'ra Qarshiga hokimligi vaqtida, qo'rg'on tashqarida savdo do'konlari qurishni taqiqlovchi farmon chiqaradi. XIX asrning boshlariga kelib, Qarshining shahar aholisi ko'payib, hududi kengayganligi bois bu farmon o'z-o'zidan bekor qilinadi. Asta-sekin qo'rg'on atrofida o'z bozorlariga, savdo do'konlariga ega bo'lgan yangi shahar paydo bo'ladi, qo'rg'on esa Eski shahar nomini oladi. Eski shahardan janubiy-sharqiy tomonda aholi ancha zich yashagan. XX asrning boshidagi hunarmandchilik va savdo markazi aholi zich joylashgan hududi shu yerda shakllangan. Asosiy katta bozor Yuqori bozor deb atalardi<sup>6</sup>. Qarshi shahridagi tarixiy, me'moriy yodgorliklar o'zbek me'morchiligining noyob namunalaridan bo'lib, ularning har biri alohida bir tarixga egadir. Bu noyob obidalar O'zbekistondagi ko'plab tarixiy madaniy yodgorliklar kabi yuksalish-u ulug'vorlik

<sup>4</sup> Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши - Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. – Қарши: Насаф, 2006. – Б. 46.

<sup>5</sup> Равшанов П. Қарши тарихи. —Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 526.

<sup>6</sup> O'sha asar, 83-bet.



davriga ham, tahqir-u tazyiqlarga ham, vayrongarchiliklarga ham duchor bo'lgan.

Arxeolog olim M.Masson XIX-XX asrlar chegarasida Qarshida yigirmata madrasa mavjud bo'lganligini aytib o'tadi. Ammo hozirgacha ulardan Sharofboy, Xo'ja Abdulaziz, Qilichboy va Bekmirqozoq madrasalarigina saqlanib qolgan, xolos.

XVII–XVIII asrlarda Turkiston xalqlari madaniyati, san'ati, ma'naviy hayoti asosan, mustaqil uch xonlik hududida rivojlandi. Bu xonliklarda ko'plab iste'dodli tarixchilar, tazkiranavislar, xattotlar, musiqashunoslar, shoir va adiblar yashab, barkamol asarlar yaratdilar. Qarshi shahrida o'tmishda o'ziga xos xattotlik maktabi shakllangan edi. Mavlono Soyiliy, Saidnazar Nasafiy, Arab Nasafiyalar shu maktabning yetakchi namoyondalaridan bo'lgan.

Xattotlikda Arab Nasafiy nomini alohida qayd etish lozim. Arab Nasafiy ko'chirgan "Farhangi Zafango'ya va Jahonpo'ya" (Jahonni kezuvi va o'rnatuvchi) deb ataluvchi yetti qismdan iborat lug'atda 5170 so'zning ma'nosi izohlab berilgan. Qo'lyozmaning so'nggi yettinchi qismida 500dan ortiq o'zbekcha so'zning lug'ati keltirilgan.

Nasaflik xattot mulla Muhammad Amin ibn Mulla Muhammad ham yetuk xattotlardan bo'lgan. U 1882-yilda ko'chirgan "Riyozan nasixin" hozirgi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.

Madaniy–adabiy hayot uch xonlik doirasida ijtimoiy-tarixiy sharoitga qarab, goh siljishda, goh turg'unlikda, goh tanazzulda bo'lib turadi. Ammo bu fikrlardan butun jamiyat inqirozga yuz tutgan, madaniyat va adabiyot tanazzulga uchragan degan xulosaga kelish kerak emas. Chunki har qanday mushkul vaziyatlarda ham inson hamisha ezgulikka, taraqqiyotga intiladi. Eng g'amgin, qorong'u kunlaridan ham umid izlaydi. Shuning uchun ham bizga bu davrlarda yaratilgan ulug' meros

yetib kelgan. Ko'p podshohlar hukmdor sifatida murosasiz bo'lsalar-da, ijodkor qalbi bilan iztirobga tushishgan, dard bilan yashashgan. Mamlakatning mustaqilligini mustahkamlash, uning ravnaqi yo'lida imkoniyatlar izlagan. Jumladan, Qo'qon xoni Amir Umarxon (Amiriy) saroyiga uzoq-yaqindan barcha ijodkorlarni yig'ib, ularga rahnamolik qilgan. Rafiqasi Nodira ham uning ishini davom ettirgan. Ko'plab ijod chashmalari ko'z ochishiga da'vatkor va homiy bo'lishgan. Yoki Xorazm xonlari, jumladan, Muhammad Rahim I, Muhammad Rahim II lar zamonida adabiyot va san'atning nodir namunalari yaratilishi bevosita ularning faoliyati bilan bog'liqdir. Biroq Xiva va Qo'qon xonligidan farqli o'laroq, Buxoro amirligida adabiy jarayon ancha qiyin kechdi. Bu holat bir tomondan o'sha davrda Buxoro adabiy muhitiga homiylik qiluvchi va adabiyotni qadrlovchi hukmdorlarning yo'qligi bilan izohlanadi. Jumladan, hokimiyat Subhonqulixon qo'liga o'tgandan so'ng, u otasi va akasi tarafdorlari bo'lgan iste'dod egalarini, xususan, ko'plab ilm ahlini ta'qib ostiga oladi. Bu esa ularning erkin ijod qilishiga to'sqinlik qiladi. Bunga birgina misol tariqasida Turdi Farog'iyning hayotini keltirish mumkin. Subhonqulixon hamda Nasrulloxon hukmdorligi paytida avom xalq bilan birgalikda juda ko'plab ilm ahlini turli qiynoqlarga soladi.

Buxoro amirligiga kiruvchi hududlarda o'ziga xos adabiy muhitlar shakllandi. Shulardan biri Qashqadaryo adabiy muhiti edi. Bu orqali xalq manfaatlarini himoya qiladigan, mehnatkashlarning jabr-zulmga qarshi noroziligi, ularning erkin hayot to'g'risidagi qarashlari ifodalangan demokratik ruhdagi adabiyot shakllana boshladi. Bu, albatta, bevosita ijtimoiy-siyosiy jarayon bilan bog'liq. Buxoro ijtimoiy hayotida islom dini g'oyalari, qoidalari yetakchi mavqeda turgan. Islom dini O'rta



Osiyoga kirib kelgach, Nasafdan juda ko'plab din peshvolari, hadisshunoslar, fiqhshunos, alloma-yu ulamolar voyaga yetishib chiqqanligi tarixdan ma'lum. Bu allomalar ichida tariximizning boy merosiga "Nasafiy" taxallusi ostida qalam tebratib katta hissasini qo'shgan, o'zining sara asarlari bilan dong taratgan ilm homiylari bisyordir. Ularning har biri o'z davrining yetuk olimlari bo'lgan. Zero, zamondosh shoirimiz Barot Boyqobilov ta'kidlab o'tganidek:

Nodir zotlar yurti ekan, bilsam Nasaf,  
Ne asrdir boshi uzra toj-u sharaf.  
Kishilikning ummonida g'avvos kabi,  
Durlar sochib hamon shahri sadaf.

Qashqadaryo adabiy muhitida XVIII–XIX asrlar tarixini, ya'ni xalqning o'sha davrdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotini eks ettirgan, xalq manfaatlarini himoya qiladigan badiiy va ilmiy adabiyotlar yuzaga keldi. XVIII-XIX asr Buxoro adabiy muhitining tarkibiy qismi bo'lgan Qashqadaryo adabiy muhitidagi xususiyatlar deyarli bir xil bo'lgan. Lekin ular boshqa adabiy muhitlar (Qo'qon Xiva)dan ayrim xususiyatlari bilan ajralib turgan. Qashqadaryo adabiy muhiti aholi etnik qatlamidan kelib chiqib, ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bu yerda zullisonaynlik (ikki tillilik) an'anasining uzoq tarixi bor. Ijod sohiblari, asosan, ikki – o'zbek va fors-tojik tilida ijod qilishgan. Ikkala tilda ham ibratli asarlar yaratilgan. Xususan, Lomeiy Nasafiy, Sayidxo'ja Nasafiy, Salohiddin Salohiy, Hoziq, Xiromiy, Tohira Nasafiy kabi ko'plab ijodkorlar yaratgan adabiy merosni e'tirof etish mumkin.

Ikkinchidan, boshqa xonliklardan farqli o'laroq bu yerda markazlashgan adabiy muhitning yo'qligi hamda ijodiy jarayonning tarqoq holda mavjud ekanligi bilan izohlanadi. Ammo bu adabiyot ravnaqiga salbiy ta'sir etmagan. Adabiy muhitda yaratilgan asarlarni

kuzatar ekanmiz, ularda diniy tushunchalarning faolligini hamda dunyoviylik esa ular zamirida yuzaga chiqqanligini ko'ramiz.

Uchinchidan, bu adabiy muhitda Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Hofiz kabi donishmand shoirlarimiz an'analari davom ettirildi. Jumladan, Salohiddin Salohiyning "Yusuf va Zulayho", Xiromiyning "To'tinima", "Yusuf va Zulayho" hamda Xayoliyning "Layli va Majnun" kabi dostonlari yaratildi.

To'rtinchidan, mavzu, g'oya va janrlar takomillashtirildi. G'azal, muxammas, ta'rix, qit'a, masnaviy kabi an'anaviy janrlarning yangi qirralari kashf etildi. Yangi zamonaviy fikrlar bilan boyitildi.

O'sha davrda yaratilgan adabiyotlar ikki yo'nalishda rivojlandi:

1. Shohlik va saroy muhitini kuylovchi adabiyot.
2. Zo'rovonlikka qarshi norozilikni va qoloqlikni tugatishga qaratilgan demokratik adabiyot.

Birinchi yo'nalish ijodkorlari, asosan, Qo'qon (Amiriy saroyida Fazliy boshchiligidagi ijodiy guruh) va Xiva (Feruz saroyida Munis, Ogahiylar ijodi) adabiy muhitida uchraydi, ammo Buxoro, xususan, Qashqadaryo adabiy muhitida bunday holni kuzatish qiyin.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari esa har bir hududda uchraydi. Chunki haqiqiy adabiyotning birinchi navbatdagi vazifasi yurt dardini kuylashdir. Mazkur yo'nalishda ijod qilganlar Qashqadaryo adabiy muhitida nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bunday ijodkorlar qatoriga Hoziq, Xiromiy, Xayoliy, Mushtoq Shahrizabziylarni sanab o'tish o'rinlidir.

Xullas, Qashqadaryo tarixida ko'pgina o'zgarishlar (hukmdorlar almashinuvi, siyosiy tazyiqlar) bo'lishiga qaramasdan, Qashqa vohasining markazi bo'lmish Nasaf (Qarshi)



yirik ilm-fan markazi sifatida Markaziy Osiyodagina emas, balki sharq olamida ham o'z salohiyatiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turgan.

Biz ko'rib o'tayotgan davrda, ya'ni XVIII asr boshlari hamda XIX asrning birinchi yarmida faoliyat yuritgan ayrim "Nasafiy"lar va boshqa ijodkorlar madaniyatning bir qirrasini hisoblangan badiiy ijod namunalari bilan Qashqa vohasining yuksalishiga o'z hissalarini qo'shishdi.

Agar qadimda Kesh shahri "Ilm val adab qubbasi" deb nom qozongan bo'lsa, Nasaf shahri hadis va fiqh sohasida nafaqat Movarounnahrda, hatto uzoq olis yurtlardan olimlar ham kelib fikrlashadigan, bahs-munozara yuritadigan "majlis-tadris" (dars yig'ini), xalqaro ilmiy kongresslar o'tkaziladigan shahar hisoblangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hasanov A. XVI-XIX asrlarda shaharsozlik va me'morchilik (Qashqadaryo vohasi misolida): Nomzodlik dissertatsiyasi. – T.: 2008. 200-b.
2. Исмоилов Н., Бўриев О. Қарши – Ўзбекистоннинг қадимий шаҳри. –Қарши: Насаф, 2006. 154-б.
3. Ко'charov J. Qarshi shahrining XVIII asr ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi tarixidan. – Samarqand: 2008. 71-b.
4. Мухаммад Али Болжувоний. Тарихи Нофеий. – Т.: Академия, 2001. 284-б.
5. Ravshanov P. Naxshab va Kesh tarixi manbalari. – Qarshi: Nasaf, 2005. 120-б.
6. Равшанов П. Қарши тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. 647-б.
7. Равшанов П. Қашқадарё тарихи. – Тошкент: Фан, 1995. 784-б.
8. Равшанов П. Шаҳрисабз тарихи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. 548-б.